QIZ BOLA BO‘LIB YASHASH QIYIN EKAN, DADAJON

ANNOTATSIYA

Iqtisodiyot va Pedagogika
Universiteti Samarqand
kampusi, boshlanğich ta’lim yönalishi 131-guruh talabasi
Murodova Vaziraoy Shovqiddin qizi

Ushbu qasidani yozishdan maqsadim — barcha qizlarga shuni aytmoqchimanki, qanday orzularingiz bo‘lmasin, ularga erishish uchun doimo intiling. Chunki qiz bola ham bu hayotda bir marotaba yashaydi. Shunday ekan, o‘z orzularingizdan voz kechmang, maqsadlaringiz sari dadil qadam tashlang va hayotda o‘z o‘rningizni toping. Har bir qiz baxtli bo‘lishga, orzulariga erishishga va o‘zi istagan hayotni yashashga haql

MUQADDIMA

Yurakda qolgan gaplar

Har bir insonning yuragida boshqalarga aytilmagan bir hikoya bo‘ladi.

Ba’zi gaplar ovoz chiqarib aytilmaydi. Ular yurakning eng chuqur joyida yillar davomida yashaydi. Odam ba’zan ularni unutdim, deb o‘ylaydi. Ammo vaqt o‘tib, kutilmaganda o‘sha gaplar yana yurak eshigini qoqadi.

Ba’zan kechasi, hamma uxlab qolganda esga tushadi.

Ba’zan odamlar orasida kulib turganingizda, ichingizdan o‘tib ketadi.

Ba’zan esa hech qanday sabab bo‘lmasa ham ko‘zlaringizga yosh to‘planadi.

Nega yig‘layotganingizni o‘zingiz ham tushunmay qolasiz.

Men ham ko‘p narsani ichimda saqladim.

Ko‘p gaplarni aytmoqchi bo‘ldim, lekin aytolmadim.

Ko‘p marta ichimdan baqirdim, lekin tashqaridan jim turdim.

Ko‘p marta “Nega?” deb so‘radim, ammo javobini topolmadim.

Va bir gapni ko‘p marta yuragimda takrorladim:

“Qiz bola bo‘lib yashash qiyin ekan, dadajon...”

Balki dadam bu gapni hech qachon eshitmagandir.

Balki eshitgan bo‘lsa ham, bu gapning ortida qancha yosh, qancha qo‘rquv, qancha aytilmagan orzu borligini bilmagandir.

Chunki ba’zan birgina jumlaning ichida butun bir umr yashiringan bo‘ladi.

Men qiz bo‘lib tug‘ilganim uchun hech qachon aybdor bo‘lmaganman.

Buni bolaligimda tushunmagan bo‘lsam ham, ulg‘ayganim sari anglay boshladim.

Qiz bo‘lishning o‘zi yomon emas.

Ammo qiz bo‘lib yashashga qo‘yiladigan talablar ba’zan juda ko‘p bo‘lar ekan.

Qiz odobli bo‘lishi kerak.

Qiz sabrli bo‘lishi kerak.

Qiz uy ishlarini bilishi kerak.

Qiz kattalarning gapidan chiqmasligi kerak.

Qiz odamlarning gapiga qolmasligi kerak.

Qiz o‘zini tutishni bilishi kerak.

Qiz kelin bo‘lganda oilasini asrashi kerak.

Qiz oilaning sha'nini o‘ylashi kerak.

Qiz...

Bu “qiz” degan so‘zning ortiga juda ko‘p vazifalar joylashtirilgan edi.

Bularning hech biri yomon emas.

Men ham odobni qadrlayman.

Men ham oilani qadrlayman.

Men ham ota-onani hurmat qilish kerakligini bilaman.

Lekin ichimda bir savol tobora kattalashib borardi:

Qizning o‘zi-chi?

Uning orzulari-chi?

Uning kelajagi-chi?

Uning o‘z hayoti-chi?

Uning “Men kim bo‘laman?” degan savoli-chi?

Nega qizga “Odamlar nima deydi?” degan savolni ko‘p beramiz-u, “Qizim, sen nimani xohlaysan?” deb kam so‘raymiz?

Men esa shu savolga juda muhtoj edim.

Balki hayotimdagi ko‘p narsalar aynan shu savol berilmagani uchun ichimda qolib ketgandir.

Shuning uchun bu kitobni yozishga qaror qildim.

Bu kitobda mening hayotim bor.

Men ulg‘aygan Anjirli qishlog‘i bor.

Oilam bor.

Bolaligim bor.

Dadamning Toshkentda ishlagan kunlari bor.

Onamning biz uchun qilgan mehnatlari bor.

Singlim bor.

Ukam tug‘ilgan kun bor.

Maktabga ilk qadamim bor.

Kitobga bo‘lgan mehrim bor.

O‘qishga bo‘lgan orzum bor.

Hunar o‘rganishga bo‘lgan harakatlarim bor.

O‘z pulimni topishni xohlagan kunlarim bor.

“Odamlar nima deydi?” degan gapdan qo‘rqib qolgan vaqtlarim bor.

Hamshiralik kursiga qatnagan kunlarim bor.

Meni turmushga berishmoqchi bo‘lgan kunlar bor.

O‘qishga kirish uchun qilgan harakatlarim bor.

Va bugun o‘qiyotganim bor.

Bu kitob mukammal hayot haqida emas.

Bu — bir qizning o‘z yo‘lini topishga bo‘lgan harakati haqida.

Bu — jim qolgan bir qizning ichida aytilmay qolgan gaplari haqida.

Bu — otasidan katta narsalar emas, faqat bir oz ishonch kutgan qiz haqida.

Bu — “Men ham qila olaman” degan ishonchni ichida asrab kelgan qiz haqida.

ANJIRLI — MENING BOLALIGIM

Men kichkina, oddiy bir qishloqda ulg‘aydim.

Anjirli.

Qishlog‘imiz katta emasdi.

Ammo men uchun u juda katta dunyo edi.

Bolaligimning ko‘p xotiralari o‘sha joy bilan bog‘liq.

O‘sha qishloqda men kulishni ham, yig‘lashni ham, odamlarning gapini ham, jimlikni ham o‘rgandim.

Anjirli oddiy qishloq edi.

Lekin odamlarning gaplari katta edi.

Bu yerda biror narsa qilsangiz ham gap bo‘lardi, qilmasangiz ham.

Kimningdir uyiga mehmon kelsa — gap.

Kimdir shaharga borsa — gap.

Kimdir yangi kiyim kiysa — gap.

Qiz bola ko‘chada ko‘proq ko‘rinsa — gap.

Biror qiz o‘qishga harakat qilsa — yana gap.: Go‘yo odamlar o‘z hayotidan ko‘ra boshqalarning hayotiga ko‘proq qiziqayotgandek edi.

Men esa bu gaplarning ichida ulg‘aydim.

Bolaligimda bularning hammasini to‘liq tushunmasdim.

Ammo vaqt o‘tgan sari ayrim gaplarning ma'nosini anglay boshladim.

Ba'zi gaplar bola uchun oddiy tuyuladi.

Ammo ulg‘aygach, o‘sha gaplar xotiradan chiqmay qoladi.

Uyimizda ham har doim tinchlik bo‘lavermasdi.

Momo, qarindoshlar, turli kelishmovchiliklar, janjallar...

Men hali kichkina edim.

Kattalarning muammolarini tushunishga yoshim yetmasdi.

Ammo bolalar hamma narsani tushunmasa-da, ko‘p narsani his qiladi.

Kattalarning ovozidagi g‘azabni his qiladi.

Onaning ko‘zidagi yoshni ko‘radi.

Dadaning jimligini sezadi.

Uyda nimadir yaxshi emasligini bola so‘zsiz ham anglaydi.

Men ham shunday anglar edim.

Ba'zan hech narsani so‘ramasdim.

Faqat jim turardim.

Chunki ayrim paytlarda savol berishdan ham qo‘rqasiz.

Nima bo‘layotganini bilmasangiz ham, nimadir bo‘layotganini sezib turasiz.

Dadam ko‘pincha Toshkentda ishlardi.

Onam esa uyda bizga qarardi.

Men, singlim...

Keyinchalik ukam ham bor edi.

Dadamning uzoqda ishlashi ham bolaligimning bir qismi bo‘lib qoldi.

Ota uyda bo‘lmagan paytda uning o‘rnini hech narsa to‘ldirmaydi.

Buni bolalikda boshqacha his qilasiz.

Ulg‘aygach esa yanada chuqurroq tushunasiz.

Ukam hali tug‘ilmagan paytlarda ham uyimizdagi ayrim gaplar meni o‘ylantirib qo‘yardi.

Bir kuni dadam hovlida bir joyni tekislayotgan edi.

Amakilarim bilan gap chiqdi.

Men kattalarning suhbatini to‘liq tushunmasdim.

Ammo bir gap qulog‘imda qoldi:

— Senga bularning nima keragi bor? Qizing bor, o‘g‘ling yo‘q. Bularni kimga qoldirasan?

Men jim turardim.

O‘sha paytda bu gapning og‘irligini bilmagandirman.

Balki oddiy gapdek qabul qilgandirman.

Ammo ayrim gaplar odamning xotirasida qoladi.

Yillar o‘tib, o‘sha gapni yana esladim.

Shunda uning ma'nosi menga boshqacha tuyuldi.

Qizing bor. O‘g‘ling yo‘q.

Go‘yo qiz farzandning qadri o‘g‘il bilan o‘lchanayotgandek edi.

Go‘yo qiz bir kun boshqa oilaga ketadigan odam, o‘g‘il esa uyda qoladigan merosxo‘r edi.

Shunda ichimdan juda oddiy, ammo og‘ir savol o‘tdi:

“Qizning nima keragi bor?”

Bu savol menga juda og‘ir botdi.

Chunki men ham qiz edim.

Men ham shu oilaning farzandi edim.

Men ham uyda kulardim.

Men ham yig‘lardim.

Men ham orzu qilardim.

Men ham o‘qishni xohlardim.

Men ham kelajak haqida o‘ylardim.

Ammo o‘sha paytda bularning hech birini so‘z bilan tushuntirib bera olmasdim.

Men faqat his qilardim.

UKAM TUG‘ILGAN KUN

Yillar o‘tdi.

Keyin ukam tug‘ildi.

Dadam juda xursand bo‘ldi.

Uning yuzidagi quvonchni ko‘rganim esimda.

Ukam tug‘ilgan yili xatna to‘yi ham qilindi.

Uyimizda bayramona kunlar bo‘ldi.

Uyda quvonch bor edi.

Men esa maktabga chiqadigan yoshda edim.

Balki o‘sha paytda hammasini tushunmagandirman.

Lekin bolalik xotirasi g‘alati bo‘ladi.

Ba'zi narsalar vaqt o‘tishi bilan xiralashadi.

Ba'zi voqealar esa aksincha, yillar o‘tsa ham yurakda juda tiniq saqlanadi.

Ukamning tug‘ilishi ham shunday xotiralardan biri.

Men undan hech qachon xafa bo‘lmaganman.

Aksincha, uni yaxshi ko‘rardim.

U mening ukam edi.

Uning dunyoga kelgani mening aybim emasdi.

Uning o‘g‘il bo‘lib tug‘ilgani ham uning aybi emasdi.

Ammo o‘sha kunlardan boshlab bir narsani yanada aniqroq sezdim:

Uyimizda o‘g‘il farzandning kelishi boshqacha quvonch bilan kutib olinar ekan.

Bu mening aybim emasdi.

Ukamning ham aybi emasdi.

Lekin qiz bo‘lib ulg‘ayayotgan men bu farqni sezardim.

Ba'zan odamlar hech narsani ataylab qilmaydi.

Ammo bola baribir farqni his qiladi.

Men ham his qilardim.

MAKTABGA ILK QADAM

Maktabga birinchi borgan kunimni unutmayman.

Men o‘qishni yaxshi ko‘rardim.

Kitoblarni yaxshi ko‘rardim.

Yangi narsani o‘rgansam, ichimda qandaydir yorug‘lik paydo bo‘lardi.

Bilim men uchun oddiy narsa emasdi.

Bilim — boshqa dunyoga ochiladigan eshikdek edi.

Men o‘sha eshikdan kirishni xohlardim.

Kitob ochganimda, go‘yo boshqa dunyoga kirgandek bo‘lardim.

Maktab men uchun faqat dars o‘qiydigan joy emasdi.

U mening orzularimga olib boradigan yo‘l edi.

Ammo katta farzand bo‘lishning o‘ziga yarasha mas'uliyati bor edi.

Maktabdan kelardim.

Uy yumushlari kutardi.

Bir ishni tugatsam, ikkinchisi chiqardi.

Ba'zan qo‘limdan kelgancha hammasini bajarardim.

Ba'zan esa shunchalik charchardimki, kitobimni ochishga ham kuchim qolmasdi.

Kitobim oldimda turardi.

Men unga qarardim.

O‘qigim kelardi.

Lekin charchoq ustun kelardi.

Shunday bo‘lsa ham ertasi kuni yana maktabga borardim.

Chunki ichimda bir kichkina qizaloq bor edi.

U qizaloq hali hech narsadan voz kechishni bilmasdi.

Uning bitta katta orzusi bor edi:

O‘qish.